



CHET EL VALYUTASIDA OPERATSIYALARNI AMALGA OSHIRISH UCHUN

80 -raqamli

**BOSH LITSENZIYA**

2015 yil 25 " iyul \_\_\_\_\_

Toshkent shahri

Ushbu Bosh litsenziya O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" va "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq

**"Asaka" aksiyadorlik tijorat banki**

(bankning to'liq nomi, pochta manzili, soliq to'lovchining identifikatsion raqami)

**Toshkent shahri, Nukus ko'chasi, 67-uy, STIR № 201589828**

bankiga chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi.

**Bank quyidagi huquqlarga ega:**

ochiq valyuta mavqeyi limiti doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan hosila moliyaviy vositalar, vakolatli banklar va o'z mijozlari bilan, valyuta birjalari orqali, shuningdek, xalqaro bozorlarda chet el valyutasini xarid qilish va sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi banklari hamda boshqa chet el banklarida vakillik va boshqa hisobvaraqlarga ega bo'lish;

naqd chet el valyutasini, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini jismoniy shaxslarga sotish va ulardan xarid qilish bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish uchun ayirboshlash shoxobchalarini ochish.

Bank qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosh litsenziya shartlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida," "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarida va boshqa qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.

Bosh litsenziyada sanab o'tilgan chet el valyutasidagi operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydigan iqtisodiy me'yorlarga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Bosh litsenziyaning amal qilish muddati – cheklanmagan.

Ushbu Bosh litsenziya 2015 yil "25 " iyul \_\_\_\_\_ da tijorat banklariga chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazish uchun berilgan litsenziyalarni ro'yxatga olish kitobida 80 -raqam ostida qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki Raisining o'rinbosari



**U.M. Mustafoev**

(ismi-sharifi)

AA № 000088

(M.O.)